

4-Mavzu: BOYO'G'LI BILAN QARG'A **Yapon xalq ertagi (Audiomatn)**

Dars maqsadi:

“Boyo‘g‘li bilan qarg‘a” yapon xalq ertak mazmuni bilan tanishtirish;
Ertak qahramonlariga tegishli nutqni bir-biridan farqlab, rollarga bo‘lib
o‘qishga o‘rgatish;

Tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Tayanch so‘zlar: boyo‘g‘li, qarg‘a, bo‘yoqchi, oliftalik oqibati.

Didaktik materiallar: иoyo‘g‘li, qarg‘a, ukkining rasmlari.

Darsning borishi:

I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)

Darsni tashkillashtirib olish.

Faollashtiruvchi mashqni o‘tkazish.

“*So‘zni top*” mashqi.

Nuqta o‘rniga mos harfni qo‘yib yangi so‘zlar hosil qiling.

. O . a

II. O‘tilganlarni takrorlash. (8 daqiqa)

“Och bo‘ri” ertagi yuzasidan savollar beriladi.

1. Ertakda qanday voqeа yuz berdi?
2. Uning qahramonlari haqida nima deya olasiz?
3. Ertak qanday yakun topdi?
4. Siz ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?

Bo‘ri bosh qahramon bo‘lgan ertak nomlarini aytildi.

III. Darsning asosiy qismi (30 daqiqa)

Amaliy topshiriq. *Partadoshingiz bilan darslikda berilgan topshiriqni o‘qing va javobini toping.*

Mening boshim yumaloq,

Ko‘zlarim katta-katta.

Tirnog‘im uzun, o‘tkir,

Tumshug‘im esa kalta.

Baquvvat, qo‘rqmas, botir,

Tunda ovga chiqaman,
Toping nomim, do'stlarim,
Boyning o'g'liman, axir.
Muhokama uchun quyidagi savollar tavsiya etiladi:

1. Topishmoq nima haqida deb o'ylaysiz?
2. Qaysi so'zlar javobni topishga yordam berdi?

Mavzuni tushuntirish.

"O'ng yoki chap" mashqi.

O'quvchilarga boyo'g'li va ukkining rasmi ko'rsatiladi. Ulardan qaysi tarafdag'i rasm boyo'g'liga tegishli ekanligi so'raladi. O'quvchilar "uch" deganda o'ng yoki chap qo'lini ko'taradi.

Matn ustida ishslash.

"Bir butunga yig'amiz" mashqi.

Hikoya matnidagi gaplar alohida-alohida qilib kesib beriladi. O'quvchilar audiomatnni tinglash jarayonida o'z gapining o'rnini aniqlashadi va o'rnidan turib xattaxta yoniga navbatma-navbat chiqadi. Audiomatn tugagach o'quvchilar o'zlari hosil qilgan matnni o'qib berishadi.

Darslikdagi QR-kod orqali **"Boyo'g'li bilan qarg'a" audioertagi tinglanadi.**

"Boyo'g'li bilan Qarg'a"

Yapon xalq ertagi

Qadim zamonlarda boyo'g'li kunduzi xohlagan tomoniga hech narsadan qo'rmasdan uchar ekan. O'sha vaqtarda u bo'yoqchilik qilar ekan. Uning oldiga har xil qushlar uchib kelarkanlar, u qushlarni istagan rangiga: qizil, ko'k, feruz, sariq ranglarga bo'yarkan. Buni ko'rgan qarg'aning havasi kelibdi. Qarg'a juda olifta ekan. U o'zini eng chiroyli rangga bo'yatish uchun kelibdi. Boyo'g'lining oldiga uchib boribdi:

– Boyo'g'lixon! Boyo'g'lixon! Baraka topkur, meni qushlar tarixida misli ko'rilmagan eng ajoyib rangga bo'yab qo'y. Men o'z go'zalligim bilan butun jahonni hayratda qoldirmoqchiman!

– Qiyq-qiyq, mayli, — deb rozi bo'libdi boyo'g'li. — Qarg'ani qaysi rangga bo'yab qo'ysam ekan, — deb uzoq boshqotirib o'yabdi. Oxiri, u qarg'ani eng yaxshi qop-qora tusga bo'yab olibdi-da:

– Mana endi, qushlar orasida senga teng keladigani yo'q! — debdi.

Qarg'a juda xursand bo'lib ketganidan, qanaqa rangga bo'yaganini oynada ko'rishga shoshilibdi. Ko'ribdi-yu, shunday qotib qolibdi. Boshidan

tortib, to dumining uchigacha qop-qora, burni qayerda, ko'zi qayerda, ajratib bo'lmaydi! Qarg'aning jahli chiqib ketibdi:

– Qanday rangga bo'yab qo'yding meni, yaramas?

Boyo'g'li o'zini oqlay boshlabdi:

– Axir o'zing meni qushlar tarixida misli ko'rilmagan eng ajoyib rangga bo'ya, deb iltimos qilding-ku!

– Sen shoshmay tur! Endi biz sen bilan do'st emasmiz! — deb qag'illabdi qarg'a.

O'shandan beri boyo'g'li yorug'da uchmay, qarg'adan qo'rqiб, kunduzlari yashirinib yotarmish.

Matn ustida ishlash. Ertak mazmuni yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. Ertak qahramonlarini ayting.
2. Boyo'g'li nima qilar edi?
3. Qarga undan nimani iltimos qildi?
4. Voqea qanday avj oldi?
5. Siz ertakning qaysi qismini eng qiziqarli deb hisoblaysiz? Nima uchun?

Matndagi "olifta" so'zi yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.

olifta – o'ziga zeb beruvchi.

Boyo'g'li va qarg'aning gaplarini ajratiladi va rollarga bo'lib o'qitiladi.

– Boyo'g'lixon! Boyo'g'lixon! Baraka topkur, meni qushlar tarixida misli ko'rilmagan eng ajoyib rangga bo'yab qo'y. Men o'z go'zalligim bilan butun jahonni hayratda qoldirmoqchiman!

– Qiyq-qiyq, mayli. Qarg'ani qaysi rangga bo'yab qo'ysam ekan.

Mana endi, qushlar orasida senga teng keladigani yo'q!

– Qanday rangga bo'yab qo'yding meni, yaramas?

– Axir o'zing meni qushlar tarixida misli ko'rilmagan eng ajoyib rangga bo'ya, deb iltimos qilding-ku!

– Sen shoshmay tur! Endi biz sen bilan do'st emasmiz!

"Savollar gulshani" mashqi.

Kichik guruhlarda ertak asosida savollar tuziladi.

Mashq daftari bilan ishlash. Mashq daftaridagi topshiriqlar bajariladi.

Ertakdagisi voqealar ketma-ketligini aniqladi.

- 
- O'shandan beri boyo'g'li yorug'da uchmay, qarg'aning qasos olishidan qo'rqib, kunduzlari yashirinib yotarmish.
 - Boshidan tortib, to dumining uchigacha qop-qora, burni qayerda, ko'zi qayerda, ajratib bo'lmaydi!
 - Qadim zamonlarda boyo'g'li kunduzi xohlagan tomoniga hech narsadan qo'rmasdan uchar ekan.
 - Qarg'a juda olifta ekan. U o'zini eng chiroylar rangga bo'yatish uchun kelibdi.
 - Qarg'a juda xursand bo'lib ketganidan, qanaqa rangga bo'yalganini oynada ko'rishga shoshilibdi.
 - O'sha vaqtarda u bo'yoqchilik qilar ekan.

Qahramonlarga tavsif beriladi.

Jadvaldan qushlar nomini topiladi va yoziladi.

J	I	B	L	A	J	I	B	O	N
Ch	U	M	A	Y	N	A	U	R	G
U	S	A	X	L	O	Ch	I	K	U
M	I	Ch	Q	A	L	O	N	A	T
Ch	K	A	K	K	D	G'	E	K	L
U	K	F	H	U	I	R	F	A	I
Q	A	R	Q	A	R	A	T	P	K

Jiblajibon, chumchuq, musicha, mayna, burgut, qarqara, qaldirg'och, kaklik...

Darsga yakun yasash va baholash. (*3 daqiqa*)

- Dars sizga yoqdimi?
- Darsda nimalarni bilib oldingiz?

Uyga vazifa berish. (*1daqiqa*)

“Boyo‘g‘li va qarg‘a” ertagining mazmunini so‘zlab bering. Siz qushlar haqida yana qanday ertaklarni bilasiz? Misollar keltiring.

5-Mavzu: Tulkining hiyłasi ko‘p...

Dars maqsadi:

- “Yo‘lbars bilan tulki” tojik xalq ertak mazmuni bilan tanishtirish;
- juftlikda ishlash ko‘nikmasini shakllantirish;
- og‘zaki nutqini va lug‘at boyligini oshirish.

Tayanch so‘zlar: tulki, yo‘lbars, hiyla, manmanlik

Didaktik materiallar: tulki ishtirok etgan ertaklardan namunalar.

Darsning borishi:

I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)

Darsni tashkillashtirib olish.

Faollashtiruvchi mashq: So‘zlarni bog‘lab, gap tuzing.

ERTAK RANGLI BO‘YOQ

II. O‘tilganlarni takrorlash. (7 daqiqa)

“Boyo‘g‘li va qarg‘a” ertagining mazmunini so‘zlab bering. Siz qushlar haqida yana qanday ertaklarni bilasiz? Misollar keltiring.

III. Darsning asosiy qismi. (30 daqiqa)

Amaliy topshiriq: *Darslikdagi rasmlarni kuzatib, ertakdagi umumiyl qahramonni aniqlang.*

Savollarga javob beriladi va muhokama qilinadi.

- Rasmlar qaysi ertakdan olingan?
- Bu ertaklardagi umumiyl qahramon haqida nima deya olasiz?

Mavzuni tushuntirish.

Suhbat davom ettiriladi.

- Tulki qahramon bo‘lgan yana qanday ertaklarni bilasiz?
- Tulki ertaklarda qanday xislatlari bilan namoyon bo‘ladi? Tulkiga ta’rif beriladi.

Matni ustida ishslash.